

SHAXS SIFATIDA RIVOJLANISHDA KASBNING MAS'ULIYATI

Raximberdiyeva Mehriniso Xosilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Pedagogika fakulteti.

Psixologiya talim yònàlishi 2-Z guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15824066>

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs sifatida rivojlanishda kasb tanlash va kasbiy mas'uliyatning o'rni psixologik hamda pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Muallif kasbning shaxsiy taraqqiyotdagi roli, kasbiy mas'uliyat hissining shakllanishi va bu omilning shaxsiy va ijtimoiy kamolotga ta'siri haqida nazariy hamda amaliy mulohazalar bildiradi.

Kalit so'zlar: Kasb, shaxs, mas'uliyat, taraqqiyot, kasbiy ong, motivatsiya, o'zini anglash.

PROFESSIONAL RESPONSIBILITY IN PERSONAL DEVELOPMENT

Annotation. This article explores the role of career choice and professional responsibility in the development of an individual as a personality from psychological and pedagogical perspectives. The author discusses how career shapes personality growth, how a sense of professional responsibility is formed, and its impact on personal and social development.

Keywords: Profession, personality, responsibility, development, career consciousness, motivation, self-realization.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ПРОФЕССИИ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье рассматривается значение выбора профессии и профессиональной ответственности в процессе развития личности. Автор анализирует взаимосвязь между профессиональной деятельностью и личностным ростом, формирование чувства ответственности и его влияние на самореализацию и социальную активность человека.

Ключевые слова: Профессия, личность, ответственность, развитие, профессиональное сознание, мотивация, самореализация.

Inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri — bu kasb tanlashidir. Kasb nafaqat moddiy ta'minot vositasi, balki shaxsning ijtimoiy o'rnini, ichki qoniqish darajasini, jamiyatga foydalilik darajasini belgilab beruvchi omildir. Shu boisdan, kasb tanlash va kasbda mas'uliyatni his etish shaxs sifatida yetuklashishning markaziy jihatlaridan biri hisoblanadi. Psixologik nazariyalarga ko'ra, shaxsning o'zini anglash, o'zini qadrlash, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi ko'pincha uning kasbiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Masalan, A. Maslou o'zining motivatsiya nazariyasida o'zini oqlash (samoaktualizatsiya) ehtiyoji haqida gapirarkan, bu ehtiyoj aynan kasbiy muvaffaqiyat orqali amalga oshishini ta'kidlaydi. Kasb tanlovidagi aniqlik va unga sadoqat shaxsda mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

O'z faoliyatini jiddiy qabul qilgan inson, o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishga intiladi, bu esa shaxsiy tartib-intizom, tashabbuskorlik, o'z ustida ishslash kabi ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi. Mas'uliyat — bu shaxsning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va ularning oqibatlari uchun javob berishga tayyorligi. Kasbda mas'uliyat hissi bir necha omillar orqali shakllanadi:

Tarbiya: oilada va maktabda bolaga mehnatga munosabat, burch va javobgarlik hissi singdirilishi zarur.

Kasbiy motivatsiya: inson kasbni nafaqat foyda uchun emas, balki o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilsa, bu mas’uliyatni oshiradi.

Jamiyat talablari: ijtimoiy talablari, jamoa nazorati va qadriyatlar ham kasbiy mas’uliyatga ta’sir qiladi.

Pedagogik va tibbiy kasblarda mas’uliyat ayniqsa muhim o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishlarda insonlar taqdiriga bevosita ta’sir qilish ehtimoli mavjudligi sababli, mutaxassis doimiy bilim yangilishi, etik qoidalarga rioya qilishi lozim.

Kasbiy mas’uliyatga ega shaxs quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Tashabbuskorlik – o‘z kasbida innovatsion fikrlashga intiladi;

Tayanch barqarorlik – stress holatlarda ham o‘z mas’uliyatini unutmaydi;

Ijtimoiy ishonchlilik – jamoada ishonchli hamkor bo‘la oladi;

Axloqiy komillik – etik normalarga qat’iy amal qiladi.

Shuningdek, kasbiy mas’uliyat shaxsning ichki qoniqishini oshirib, uning hayotiy maqsadlariga erishishda kuchli tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs sifatida mukammallikka erishish jarayonida kasb va unga bo‘lgan munosabat o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kasbda mas’uliyat hissining mavjudligi insonni o‘z yo‘lidan adashmaslikka, doimiy rivojlanishga, jamiyatda munosib o‘rin egallashga undaydi. Shu sababli har bir yoshta kasb tanlashda jiddiy yondashish, bu yo‘lda mas’uliyatli bo‘lish zarurligi o‘rgatilishi kerak. Zero, shaxsning kamoloti uning kasbdagi mas’uliyat darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shaxsning o‘z-o‘zini anglash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi ko‘p jihatdan uning kasbiy faoliyatiga bog‘liqdir. Masalan, A. Maslou tomonidan taklif etilgan ehtiyojlar iyerarxiyasida yuqori pog‘onada joylashgan “o‘zini oqlash” ehtiyoji insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalgalashishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon esa, ko‘pincha kasbiy faoliyat orqali ro‘yobga chiqadi [2].

Mas’uliyat – bu o‘z harakatlari va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni tan olishdir.

Kasbda mas’uliyat quyidagi yo‘llar bilan shakllanadi:

Ijtimoiy muhit va tarbiya: Shaxsning bolalikdan kasbga bo‘lgan munosabati, ota-onaning, maktab muhitining ta’siri asosiy o‘rinda turadi [3].

Kasbiy identifikatsiya: Inson o‘zini muayyan kasb egasi sifatida anglaganida, u ushbu faoliyatni o‘zining ajralmas qismiga aylantiradi va unga bo‘lgan munosabati ham mas’uliyatli bo‘ladi [4]. Shuningdek, kasbiy mas’uliyat o‘zini doimiy rivojlantirishga, yangilikka intilishga, mehnatga ijobjiy munosabatda bo‘lishga olib keladi. Bu esa shaxs sifatida o‘sishni rag‘batlantiradi.

Kasbiy mas’uliyat shaxsda quyidagi ijobjiy xususiyatlarni shakllantiradi:

Tashabbuskorlik – inson o‘z faoliyatida ilg‘or yondashuvlarni qo‘llaydi;

Stressga bardoshlilik – muammolarga mas’uliyat bilan yondashadi;

Etik fazilatlar – kasbiy axloqiy me’yorlarga rioya qiladi;

Hayotdan qoniqish – kasbiy muvaffaqiyatlar orqali o‘zini anglashga erishadi [5].

Shu sababli, kasbiy mas’uliyat shaxsiy barkamollikning asosi sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kasb shaxs taraqqiyotining ajralmas bir qismi bo‘lib, unga bo‘lgan mas’uliyat insonning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarda kasb tanlash madaniyati va unga bo‘lgan mas’uliyat hissini shakllantirish ularning shaxs sifatida kamolotini ta’minlaydi. Bu esa kelajakda ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil va mas’uliyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maslow A. "Motivation and Personality" – Harper & Row, 1954.
2. Bekhterev V.M. "Psixologiya va hayot" – Toshkent: Fan, 1982.
3. Ayupova N. "Pedagogik psixologiya" – Toshkent, 2020.
4. Erkinov Sh. "Kasbiy faoliyatda shaxs mas'uliyati" – Ilm-fan, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil.